



THE PROSPECTS FOR COOPERATION AMONG CENTRAL ASIAN STATES IN THE ANALYSES OF INTERNATIONAL ORGANIZATIONS

Munira Fayzullayevna Xujanova

Associate Professor (PhD) of the Faculty of History, Jizzakh State Pedagogical University
Jizzakh, Uzbekistan

Muxayyo Jalilova

2nd-year Master's student in the program

Methodology of Teaching Social and Humanitarian Sciences (History)

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, regional integration, international organizations, economic cooperation, geopolitics, sustainable development, security.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article examines the prospects for cooperation among the Central Asian states based on reports and analytical materials of international organizations. The study analyzes regional integration processes, security, economic cooperation, transport and logistics systems, as well as water and energy issues through a comprehensive approach. According to the findings of the article, international organizations assess the region as having high potential for sustainable development and integration.

XALQARO TASHKILOTLAR TAHLILLARIDA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Munira Fayzullayevna Xujanova

Jizzax Davlat Pedagogika universiteti tarix fakulteti dotsenti (PhD)

Jizzax, O'zbekiston

Muxayyo Jalilova

Jizzax Davlat Pedagogika universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) yo'nalishi 2-kurs magistri

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy integratsiya, xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy hamkorlik, geosiyosat, barqaror rivojlanish, xavfsizlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlari oʻrtasidagi hamkorlik istiqbollari xalqaro tashkilotlar hisobotlari va tahliliy materiallari asosida oʻrganiladi. Tadqiqotda mintaqaviy integratsiya jarayonlari, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika tizimi hamda suv-energetika masalalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Maqola natijalariga koʻra, xalqaro tashkilotlar mintaqani barqaror rivojlanish va integratsiya uchun yuqori salohiyatga ega hudud sifatida baholamoqda.

ПЕРСПЕКТИВЫ СОТРУДНИЧЕСТВА ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В АНАЛИТИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛАХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Мунира Файзуллаевна Хужанова

Доцент (PhD) исторического факультета

Джизакского государственного педагогического университета

Джизак, Узбекистан

Мухайё Жалилова

Магистрант 2 курса направления Методика преподавания социально-гуманитарных наук (История)

Джизакского государственного педагогического университета

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, региональная интеграция, международные организации, экономическое сотрудничество, геополитика, устойчивое развитие, безопасность.

Аннотация: В данной статье перспективы сотрудничества государств Центральной Азии рассматриваются на основе отчетов и аналитических материалов международных организаций. В исследовании комплексно анализируются процессы региональной интеграции, вопросы безопасности, экономического сотрудничества, транспортно-логистической системы, а также водно-энергетические проблемы. По результатам статьи международные организации оценивают регион как обладающий высоким потенциалом для устойчивого развития и интеграции.

Kirish. Markaziy Osiyo davlatlari XXI asrda global geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlarning juda muhim markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu mintaqa Yevropa va

Osiyoni bog'lovchi strategik hudud sifatida energetika, transport va savdo yo'llarining tutashgan nuqtasida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asarida "...bugungi real voqelik Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirish yo'lida qat'iy qadamlar tashlashni talab qilmoqda. Uzoq muddatli istiqbolda yangi o'sish nuqtalari va taraqqiyotimizning yangi drayverlarini belgilab olish g'oyatda muhim" deb yozilgan. Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Tojikiston kabi davlatlar o'zlarining strategik geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va tarixiy madaniy merosi bilan global integratsiyada muhim rol o'ynashi mumkin. Biroq, bu yo'ldagi taraqqiyot turli ichki va tashqi muammolar bilan to'qnash kelmoqda.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari xalqaro tashkilotlarning tahliliy hujjatlari va strategik hisobotlari asosida kompleks tarzda o'rganiladi. Tadqiqotda mintaqaviy integratsiya jarayonlari xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika tizimi hamda suv-energetika muammolari kesimida tizimli ravishda tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning mintaqaga nisbatan strategik yondashuvlari qiyosiy tahlil asosida o'rganilib, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni institutsionallashtirish imkoniyatlari va cheklovlari aniqlanadi.

. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik istiqbollari masalasi zamonaviy xalqaro munosabatlar fanida keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mintaqaning geosiyosiy ahamiyati, iqtisodiy integratsiya imkoniyatlari hamda xavfsizlik muammolarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan. Global integratsiya va iqtisodiy ochiqlik masalalari Dani Rodrik tomonidan yozilgan "Globallashuv paradoksi: demokratiya va jahon iqtisodiyotining kelajagi" (2011, W.W. Norton nashriyoti) asarida chuqur tahlil qilingan bo'lib, unda globallashuv va milliy manfaatlar o'rtasidagi muvozanat muammolari yoritiladi. Shuningdek, Jagdish Bhagwatining "Globallashuvni himoya qilish" (2004, Oxford universiteti nashriyoti) asarida iqtisodiy integratsiyaning ijobiy jihatlari asoslab berilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy rivojlanishi va integratsiya jarayonlari Richard Pomfret tomonidan yozilgan "Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari" (2019, Princeton universiteti nashriyoti) asarida keng yoritilgan bo'lib, unda postsovet hududidagi iqtisodiy transformatsiya va mintaqaviy hamkorlikning o'ziga xos jihatlari tahlil etiladi.

Mintaqaviy xavfsizlik va geosiyosiy jarayonlar masalalari Alexander Cooleyning "Katta o'yinlar, mahalliy qoidalar: Markaziy Osiyoda buyuk davlatlar o'rtasidagi yangi raqobat" (2012,

Oxford universiteti nashriyoti) asarida ochib berilgan bo‘lib, unda yirik davlatlar o‘rtasidagi raqobat va uning mintaqaga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Marlene Laruelle tomonidan yozilgan “Global davrda Markaziy Osiyo” (2018, Lexington Books nashriyoti) asarida mintaqaning global siyosiy tizimdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlari mazkur tadqiqot uchun muhim empirik manba hisoblanadi. Jumladan, Jahon banki tomonidan e‘lon qilingan “Yevropa va Markaziy Osiyo iqtisodiy sharhi” (2023, Jahon banki nashriyoti) hisobotida mintaqadagi iqtisodiy integratsiya va savdo aloqalarining rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. International Monetary Fundning “Mintaqaviy iqtisodiy istiqbol: Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo” (2022, XVF nashriyoti) hisobotida esa makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy islohotlar masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, United Nations tizimidagi tahliliy hujjatlar, xususan “Markaziy Osiyo: mintaqaviy hamkorlik imkoniyatlari” (2019, BMT nashriyoti) mintaqaviy hamkorlikning istiqbollari keng yoritadi. European Bank for Reconstruction and Development tomonidan tayyorlangan “O‘tish davri hisoboti 2022–2023” (2023, YTTB nashriyoti) hisobotida esa mintaqadagi iqtisodiy transformatsiya va investitsiya muhitiga baho berilgan. Shuningdek, Organization for Security and Co-operation in Europe hisobotlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik, siyosiy barqarorlik va ishonch choralari mustahkamlash masalalarini yoritadi.

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonlari katta salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal etish uchun ko‘p tomonlama yondashuv va xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Milliy ilmiy maktab vakillari — Ravshan Alimov, Abdulaziz Komilov va Hasan Karimovlarning tadqiqotlarida Markaziy Osiyoda xavfsizlik, transport-logistika tizimi, iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy siyosatning dolzarb masalalari yoritilgan. Ularning ishlari mintaqadagi integratsiya jarayonlarini ichki omillar va milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari va strategik hujjatlari muhim manba sifatida xizmat qiladi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi institutlarning tahliliy materiallarida Markaziy Osiyo mintaqasi quyidagi asosiy yo‘nalishlar kesimida baholanadi:

- xavfsizlik va siyosiy barqarorlik, bunda terrorism, ekstremizm va transmilliy tahdidlarga qarshi kurash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi;

- iqtisodiy integratsiya va savdo hamkorligi, mintaqaviy bozorlarni rivojlantirish va transport-logistika aloqalarini kengaytirish orqali izohlanadi;

- barqaror rivojlanish va ekologik muammolar, xususan suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishi va "yashil iqtisodiyot" masalalari bilan bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi sifatli tahlil yondashuviga asoslangan bo'lib, unda bir qator ilmiy usullar qo'llanildi. Avvalo, tarixiy, qiyosiy, hujjali, statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotda foydalanilgan ma'lumotlar asosan Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, shuningdek milliy statistik manbalar va rasmiy ochiq ma'lumotlar bazalaridan olindi. Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuv Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik jarayonlarini tizimli, kompleks va ko'p omilli tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqaviy hamkorlik va siyosiy muloqot sezilarli darajada faollashgan. Bu jarayon, avvalo, davlat rahbarlari darajasidagi muntazam maslahat uchrashuvlarining yo'lga qo'yilishi bilan izohlanadi. Xususan, 2018-yildan boshlab tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari mintaqaviy integratsiyaning yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu uchrashuvlar doirasida siyosiy ishonchni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda umumiy xavfsizlik muammolariga birgalikda yondashuvni shakllantirish masalalari muhokama qilinmoqda. Xalqaro tashkilotlar tahlillari ham ushbu jarayonlarni ijobiy baholamoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida faoliyat yurituvchi profilaktik diplomatiya mexanizmlari, jumladan, Markaziy Osiyo uchun mintaqaviy markaz (UNRCCA) mintaqada nizolarni oldini olish va barqarorlikni ta'minlashda muhim institutsional vosita sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tuzilma transchegaraviy suv resurslarini boshqarish, chegara masalalarini hal etish va siyosiy maslahatlashuvlarni rivojlantirish orqali mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoni strategik hamkor sifatida ko'rib, iqtisodiy va institutsional integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan siyosat olib bormoqda. So'nggi yillarda transport-logistika infratuzilmasi, energetika va raqamli iqtisodiyot sohaslariga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining ortishi mintaqaning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvini jadallashtirmoqda. Bu esa Markaziy Osiyoning geoiqtisodiy ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Mintaqada ko'p tomonlama hamkorlik platformalarining kengayishi ham muhim tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan: C5+1 — AQSh va besh Markaziy Osiyo davlati o'rtasidagi hamkorlik

mexanizmi bo'lib, u savdo-iqtisodiy aloqalar, energetika xavfsizligi, mintaqaviy barqarorlik hamda terrorizmga qarshi kurash masalalarini qamrab oladi.

Conference on Interaction and Confidence-Building Measures in Asia (CICA) — Osiyo mintaqasida ishonchni mustahkamlash va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ko'p tomonlama platforma bo'lib, Markaziy Osiyo davlatlari uchun mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash vositasi vazifasini bajaradi. Mazkur platformalar Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqaro siyosiy va iqtisodiy tizimga integratsiyalashuv jarayoni jadallashayotganini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlikni rivojlantirishda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OSCE) muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilot mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash; o'zaro ishonch choralarini rivojlantirish; barqaror taraqqiyot masalalarini muhokama qilish bo'yicha muntazam ravishda ekspert forumlari va siyosiy muloqot maydonlarini tashkil etadi. Jumladan, Toshkent shahrida o'tkazilgan ekspertlar forumi ilmiy hamkorlik va tajriba almashish uchun muhim platforma vazifasini bajargan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tashkilotlar Markaziy Osiyoni strategik geosiyosiy hudud, barqarorlikni talab etuvchi xavfsizlik makoni, iqtisodiy hamkorlik va transport-logistika integratsiyasi uchun istiqbolli mintaqa sifatida baholaydi.

BMT, xususan UNRCCA orqali, nizolarni oldini olish va profilaktik diplomatiyani amalga oshirishga e'tibor qaratadi. Yevropa Ittifoqi iqtisodiy va institutsional hamkorlikni chuqurlashtirishni maqsad qiladi. C5+1 va CICA kabi platformalar ko'p tomonlama muloqotni kengaytiradi, YXHT esa xavfsizlik va ishonch mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu tariqa, Markaziy Osiyo xalqaro tashkilotlar faoliyatida barqarorlik, integratsiya va hamkorlikning muhim mintaqaviy markazi sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda BMT oilasi quyidagi tashkilotlar tomonidan ifodalanadi: BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Aholi jamg'armasi (UNFPA), YUNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), YUNESKO, Giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC), Xotin-qizlar huquqlarini ilgari surish bo'yicha UN Women, Markaziy Osiyo uchun oldini olish diplomatiyasi bo'yicha mintaqaviy markaz (UNRCCA), Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO), BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM), hamda BMT Ko'ngillilar dasturi (UNV).

BMTning boshqa ixtisoslashgan agentliklari – Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO), Atrof-muhit dasturi (UNEP), Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) ham O'zbekistondagi faoliyatga hissa qo'shmoqda. Shuningdek, Jahon banki ham BMT tizimining mustaqil ixtisoslashgan agentligi sifatida mamlakatimizdagi islohotlarga salmoqli hissa

qo'shmoqda. O'zbekiston hukumati va xalqaro hamjamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlovchi samarali vosita sifatida BMTning O'zbekiston bo'yicha Taraqqiyotga ko'maklashish yagona dasturi (UNDAF) ishlatilmoqda.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston va BMT o'rtasidagi siyosiy aloqalar so'nggi yillarda ancha faollashdi. Afg'onistondagi ko'p yillik qonli urushlarga barham berish, ushbu mamlakatni tiklash va mintaqada xavfsizlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarga O'zbekiston alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, BMTning Afg'oniston bo'yicha tiklanish dasturlarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda, jumladan: O'zbekiston-Afg'oniston chegarasida xalqaro gumanitar yordam yuklarini yetkazib berish uchun ko'prik ochildi, Afg'oniston hududida ko'plab infratuzilma obyektlari qurilmoqda. O'zbekiston tomonidan Termiz shahrida xalqaro transport-logistika markazi tashkil etildi. Bu imkoniyatlardan BMTning Qochqinlar ishlari bo'yicha boshqarmasi (UNHCR) va Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) faol foydalanmoqda.

2018-yil mart oyida Toshkentda bo'lib o'tgan Afg'oniston bo'yicha konferensiya yakunlari bo'yicha qabul qilingan yakuniy deklaratsiya 2018-yil aprel oyida BMT Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashining 72-sessiyasi rasmiy hujjati sifatida tarqatildi. Bundan tashqari, O'zbekiston rahbariyatining Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish borasidagi sa'y-harakatlari va Toshkent konferensiyasiga oid ma'lumotlar BMT Bosh kotibining 2018-yil sentabrda e'lon qilingan "Afg'onistondagi vaziyat va uning xalqaro tinchlik va xavfsizlikka ta'siri" nomli hisobotiga ham kiritildi. 2022-yil iyul oyida Toshkentda yana bir bor Afg'oniston masalasiga bag'ishlangan konferensiya o'tkazilishi O'zbekistonning ushbu davlatda barqaror tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash yo'lidagi muhim hissasi bo'ldi. Hozirda BMT doirasida O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha Xalqaro muzokaralar guruhini tuzish tashabbusini ilgari surish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Afg'oniston muhim transchegaraviy hududda joylashgan. Bu mamlakat bilan hamkorlikdan Markaziy Osiyo davlatlari eng ko'p manfaatdor.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va infratuzilma samaradorligi xalqaro reytinglar orqali ham tasdiqlanmoqda. BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) tomonidan tayyorlangan Inson taraqqiyoti indeksida (Human Development Index) O'zbekiston dunyoning 193 mamlakati va hududi orasida 106-o'rinni egalladi. Indeks 2022-yilgi ma'lumotlarni taqdim etadi. Mamlakat 2021-yilga nisbatan bir pog'onaga tushgan. Mamlakatlar inson taraqqiyotining uchta asosiy ko'rsatkichi bo'yicha baholandi — umr ko'rish davomiyligi, kutilayotgan va amaldagi ta'lim davomiyligi hamda aholi

jon boshiga sotib olish qobiliyati pariteti bo'yicha yalpi milliy daromad ko'rsatkichi. Mintaqa davlatlari kesimida qaralganda, Qozog'iston indeksda 67, Turkmaniston 94, Qirg'iziston 117 va Tojikiston 126-o'rinni egalladi. Ushbu ko'rsatkichlar Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida inson kapitali rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanish darajasi ham mintaqaviy integratsiya jarayonlarining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Jahon banki tomonidan e'lon qilingan Logistika samaradorligi indeksi (Logistics Performance Index) 2023-yil natijalariga ko'ra, Qozog'iston 139 ta davlat orasida 95-o'rinni (2,7 ball) egallagan bo'lsa, O'zbekiston 107-o'rin (2,6 ball), Tojikiston 124-o'rin (2,5 ball) va Qirg'iziston 133-o'rinni (2,3 ball) band etgan. Mazkur ko'rsatkichlar mintaqa davlatlarida logistika tizimi va transport infratuzilmasini rivojlantirish zarurati yuqoriligini ko'rsatadi. Xususan, logistika samaradorligining nisbatan past darajada ekanligi savdo-iqtisodiy aloqalar kengayishiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini sekinlashtiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Biroq siyosiy manfaatlar tafovuti, suv-energetika masalalaridagi kelishmovchiliklar, tashqi geosiyosiy raqobat, transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillar hamkorlik samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo mintaqasida bir qator tahdid va xavf-xatarlar saqlanib qolmoqda;

Davlatchiligi zaif, iqtisodiy nuqtayi-nazardan nobarqaror mamlakatlar mavjudligi;

Mintaqaga radikal diniy oqimlarning tarqalish xavfi;

Mintaqadagi geosiyosiy raqobat;

Xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va narkotiklar oqimi;

Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayoni tugallanmaganligi;

Afg'onistondagi vaziyatning mavhumligi.

Mavjud muammolarga qaramasdan o'zaro ishonchning ortishi va ko'p tomonlama diplomatiya mexanizmlarining mustahkamlanishi ijobiy istiqbollarni ta'minlamoqda.

Xulosa. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari Markaziy Osiyoni yuqori integratsion salohiyatga ega mintaqa sifatida baholaydi. Xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika va ekologik barqarorlik yo'nalishlarida izchil siyosat olib borilishi kelgusida mintaqaviy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Takliflar

- Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida institutsional integratsiya mexanizmlarini mustahkamlash zarur.

- Suv-energetika sohasida yagona mintaqaviy platforma yaratish tavsiya etiladi.
- Transport infratuzilmasini raqamlashtirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish savdo hajmini oshiradi.
- Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Mintaqa davlatlari o'rtasidagi konstruktiv muloqot va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish barqaror rivojlanishning muhim kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev.Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti,2021
2. Dani Rodrik .NATIONAL BUREAU OF ECONOMIC RESEARCH 1050 Massachusetts Avenue Cambridge, MA 02138 February 2000
3. Jagdish Bhagwati In Defense Of Globalization Oxford University Press (2004)
4. Richart Pomfret.The Central Asian Economies Since Independence.Princeton University Press.2006,
5. U.S.To'pchiyev, A.Sh.Eshmuhamatov, A.A.Abduraxmonov, A.Z.Suvonqulov, A.A.Abduraxmonov.-"O'zbekistonning eng yangi tarixi".Darslik.-Jizzax:"JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" davlat muassasasi nashriyoti,2025.
6. O'zbekiston Inson taraqqiyoti indeksida 106-o'rinni egalladi <https://www.gazeta.uz/oz/2024/03/15/hdi/>
7. World Bank. Connecting to Compete 2023: Trade Logistics in the Global Economy – The Logistics Performance Index and Its Indicators. Washington, DC: World Bank, 2023.
8. Conference on Interaction and Confidence-Building Measures in Asia CICA Secretariat. (2023). About CICA. CICA Secretariat. <https://www.s-cica.org>
9. Organization for Security and Co-operation in Europe Project Co-ordinator in Uzbekistan. OSCE expert meetings and forums in Tashkent — 2021. — OSCE Uzbekistan Office.
10. Alimov, R. (2013). Central Asia: Common History and Common Future. Tashkent: Sharq nashriyoti; Komilov, A. (2017). Markaziy Osiyo: tashqi siyosat va mintaqaviy hamkorlik. Toshkent; Karimov, H. (2018). Mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari. Toshkent.
11. United Nations. (2020). UN Regional Centre for Preventive Diplomacy for Central Asia (UNRCCA) Report. New York: UN Publications; OSCE. (2021). Annual Report. Vienna: OSCE.

12. World Bank. (2023). Europe and Central Asia Economic Update. Washington, DC: World Bank Publications; IMF. (2022). Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia. Washington, DC: IMF.
13. EBRD. (2023). Transition Report 2022–2023. London: EBRD; United Nations. (2019). Central Asia: Opportunities for Regional Cooperation. New York: UN Publications.
14. Cooley, A. (2012). Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia. Oxford: Oxford University Press.
15. Laruelle, M. (2018). Central Asia in the Global Age. Lanham: Lexington Books.
16. World Bank. (2023). Europe and Central Asia Economic Update. Washington, DC: World Bank Publications.
17. International Monetary Fund. (2022). Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia. Washington, DC: IMF.
18. United Nations. (2019). Central Asia: Opportunities for Regional Cooperation. New York: United Nations Publications.
19. European Bank for Reconstruction and Development. (2023). Transition Report 2022–2023. London: EBRD.
20. OSCE. (2021). Annual Report. Vienna: Organization for Security and Co-operation in Europe.